



**YURAK QON-TOMIR KASALLIKLARI. ATEROSKLEROZ
KASALLIGINING ETIOLOGIYASI VA PATOGENEZI HAMDA
KLINIKASI**

*Muallif; Ergashboyev Muhammadyusuf Muhammadali o'g'li Qo'qon
Universiteti Andijon filiali Davolash ishi 25-22 guruh talabasi.*

Anotatsiya; Yurak qon-tomir kasalliklari butun dunyoda, shu jumladan, O'zbekistonda ham keng tarqalgan. Respublikamiz aholisi orasida o'limga olib keluvchi barcha sabablar orasida GK, Ateroskleroz va ular bilan bog'liq bo'lgan yurak ishemik kasalligi yetakchi o'rin tutadi. Shu sababli barcha shifokorlar, eng avvalo, kardiologlar, terapevtlar va umumiy amaliyot vrachlari ushbu guruh kasalliklarini o'z vaqtida tashxislash, davolash va profilaktika tamoyillari to'g'risida chuqur bilimga ega bo'lishlari lozim.

Kalit so'zlar; yurak, qon-tomir, ateroskleroz, sog'lom turmush tarzi, alkohol, jismoniy faollik, yetarli uyqu, stress, nasliy moyillik.

Kirish.

Ateroskleroz- surunkali kasallik bo'lib unga arteriya devorlariga lipidlar infiltratsiyasi va biriktiruvchi to'qima o'sishi natijasida tomir teshigini toraytiruvchi va zararlangan arteriyani fiziologik faoliyatini o'rgatuvchi fibroz pilakcha shakllanishi oqibatida ichki a'zolar va umumiy qon aylanish buzilishini rivojlanishi xos, kasallik 35-65 yoshli shaxlar orasidagi o'limning 1/3, barcha o'limlarning esa taxminan yarmiga sabab bo'ladi. Ateroskleroz va u bilan bog'liq bo'lgan ichki a'zolarining xastaliklari (YIK,MI, bosh miyada, oyoqlarda va qorin bo'shlig'I a'zolarida qon aylanishining buzilishi va boshqalar) aksariyat rivojlangan mamlakatlar aholisi orasida kasallanish, ish qobiliyatini yo'qotish, nogironlik va o'limga olib keluvchi asosiy sabablardan biri hisoblanadi.

Etiologiyasi va patogenezi.

Yuqorida sanab o'tilgan omillar ateroskleroz rivojlanishining asosiy sabablari hisoblanadi. Uning patogenezi o'ta murakkab bo'lib, rivojlanishining qator



bo'g'implari hamon o'rganilib kelinmoqda. Zamonaviy tushunchalarga ko'ra, ateroskleroz rivojlanishi asosida qator patogenetik omillar yotib, ular fibros pilakcha (asoratlangan va asoratlanmagan) paydo bo'lishiga olib keladi. Aterosklerotik pilakcha shakllanishida quyidagi uchta bosqich farqlanadi(atrogenez);

- Lipid dog'lar va chiziqchalar (yo'laklar) vujudga kelishi (lipoidoz bosqichi);
- Fibroz pilakcha paydo bo'lishi (lipozkleroz bosqichi);
- Asoratlangan aterosklerotik pilakcha shakllanishi.

Lipid dog'lar va chiziqchalar vujudga kelishi. Ateroskleroz rivojlanishining boshlang'ich bosqichida arteriyalar intilmasida, odatda, lipid dog'lari va chiziqchalar vujudga keladi.

Asosiy qism.

Klinikasi.

Aterosklerozning klinik namoyon bo'lishi jarayonning joylashgan sohasi va yuzaga kelgan gemodinamik buzulishlarning xususiyati hamda darajasiga bog'liq. Amaliyotda tomirlarning ateroskleroz bilan zararlanishini quyidagi sohalarda ko'p kuzatiladi;

- Ko'krak aortasi va uning shoxlari aterosklerozi;
- Qorin aortasi va uning shoxlari aterosklerozi;
- Toj tomirlar aterosklerozi;
- Bosh miya tomirlar aterosklerozi;
- Periferik arteriyalar aterosklerozi;
- Buyrak arteriyalari aterosklerozi va boshqalar.

Yuqorida sanab o'tilgan shakllardan har biri u yoki bu a'zoning tuzilishi va faoliyatidagi o'zgarishlar hamda qon aylanishining buzilishiga bog'liq holda yuzaga keluvchi o'ziga xos klinik belgilar bilan farqlanadi. Aksariyat hollarda, patologik jarayon ko'krak va qorin bo'shlig'I aortasida kuzatiladi. Masalan, toj tomirlar aterosklerozi YIK ga hos klinik belgilar bilan, qorin bo'shlig'I aortasi va uning



shoxchalari zararlanishi abdominal ateroskleroz yoki almashib keluvchi oqsoqlanish, ekstrakranial tomirlar aterisklerozi esa bosh miyaning ishemik kasalligi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ayrim hollarda u yoki bu arteriya bo'shlig'ining aterosklerotik torayishi uzoq yillar mobaynida klinik belgilersiz kechishi mumkin. Bu nafaqat aterosklerotik zararlanishning xususiyati va darajasi, shuningdek, qator kompensar mexanizmlar (masalan, kollateral qon aylanishi mavjudligi yoki a'zolarida metabolik jarayon hamda uning intensivligining o'zgarishi va boshqalar) holatiga ham bog'liq. Shu sababli ma'lum bir soha qon tomirlari zararlanishining yaqqol klinik belgilari bo'lmasligi ateroskleroz darajasini to'liq aks ettirmasligini ta'kidlab o'tish lozim.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, yurak qon-tomir kasalliklari hayotga havf soladigan kasalliklardan biri hisonlanadi. Yurak qon-tomir kasalliklarini oldini olish uchun sog'lom turmush tarziga rioya qilish, jismoniy faollik, yetarli uyqu, sog'lom ovqatlanish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Abdig'affor Gadayev. Ichki kasalliklar.
2. A. Gadayev, M.SH. Karimov, X.S. Axmedov. Ichki kasalliklar propedevtikasi.
3. A. Ahmedov, X.Rasulov. Odam anatomiyasi.